

## O'smirlik davrida agressiv xulq-atvorni shakllanishi

Noila Vaqqosova  
KIUT Namangan filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlik davrida agressiv xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy omillar tahlil qilingan. Agressiyaning namoyon bo'lish shakllari, uning sabablari hamda o'smirlarning emotsional rivojlanish jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan. Tadqiqotda oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, maktab muhitidagi bosimlar va shaxsning individual xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, agressiya, o'smir, inqiroz, xulq-atvor, empatiya, qaysarlik

## The formation of aggressive behavior in adolescence

Noila Vaqqosova  
KIUT Namangan branch

**Abstract:** This article analyzes the psychological and social factors influencing the formation of aggressive behavior in adolescence. The forms of manifestation of aggression, its causes, and features in the process of emotional development of adolescents are highlighted. The study examined the relationship between family environment, peer group, school environment pressure, and individual personality traits on a scientific basis.

**Keywords:** family, aggression, adolescent, crisis, behavior, empathy, stubbornness

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, ayniqsa, internet tarmog'ining keng ommalashuvi, inson hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Bugungi kunda o'smirlar ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, onlayn o'yinlar va boshqa raqamli manbalar orqali katta hajmdagi axborotga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'lib, bu holat ularning psixologik holati, emotsional rivojlanishi va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, virtual makonda zo'ravonlik, tahdid, kiberbulling, agressiv kontentga boy videolar va o'yinlarning keng tarqalganligi o'smirlar ongida agressiv reaksiyalar shakllanishiga, empatiya darajasining pasayishiga va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik emas, balki moslashuvchanlik rivojlanishiga olib kelmoqda. Bu esa o'smirlarning ijtimoiy muhitdagi xatti-harakatlarida salbiy oqibatlarni yuzaga chiqarishi mumkin.

O'smir -bu bolalikdan kattalar dunyosiga qadam qo'yiladigan, jismoniy va ruhiy o'zgarishlar jadal kechadigan davrdir. Mana shu jarayonlarda o'smirlarning his-tuyg'ulari keskinlashishi, ular o'zlarini izlashlari va mustaqillikka intilishlari tufayli ayrim hollarda agressivlik namoyon bo'lishi mumkin.

Agressivlik ko'p hollarda ichki qiyinchiliklar-tushunmaslik, emotsional bosim, o'zini namoyish qilish ehtiyoji yoki kechirilmagan ranjishlar bilan bog'liq bo'ladi. O'smir kishi o'z hislarini to'g'ri ifoda qilishni hali to'liq o'rganmagani sababli, ba'zan u norozilikni qattiq gapirish, tortishish yoki jismoniy agressiya orqali bildirishi mumkin.

Biroq agressiv xulq-atvor har doim ham yomon niyatdan kelib chiqmaydi. Ayrim o'smirlar uchun bu -o'z chegaralarini belgilash, e'tibor talab qilish yoki o'zini himoya qilish usulidir. Eng muhim jihati - ular bilan muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish, his-tuyg'ularini tinglash va tushunishdir.

Agressiya-insonning boshqa shaxslarga, jamiyatga yoki o'z-o'ziga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan xulq-atvori yoki ichki ruhiy holatidir. U inson tabiatining murakkab va ko'p qirrali jihati bo'lib, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot va pedagogika sohalarida keng o'rganiladi. Zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra, agressiya faqat jismoniy zo'ravonlik emas, balki og'zaki, hissiy va hatto passiv shakllarda ham namoyon bo'ladi. Psixologik adabiyotlarda agressiya odatda ikki asosiy kategoriyaga bo'linadi:

1. Instrumental agressiya - muayyan maqsadga erishish uchun qo'llanadigan agressiv xulq. Masalan, bola o'yinchoqni olish uchun boshqani uradi.

2. Emotsional (reaktiv) agressiya - his-tuyg'ular ta'sirida, xavotir, qo'rquv yoki gnevdan kelib chiqadigan beqaror reaksiya. Masalan, stress holatida qo'zg'algan insonning og'zaki yoki jismoniy jarohat yetkazishi.

O'smirlarda kuzatiladigan agressiyaning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bu davrning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini bilish juda muhim. O'smirlik davri insonning 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu qisqa vaqt davomida o'smir o'z rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tadi: o'z-o'zi bilan, shuningdek yon-atrofidagi yaqinlari bilan sodir bo'ladigan ichki nizolar, tez-tez kuzatiladigan tashqi noroziliklar, yuksalishlar kabilarga to'qnash kelib, u o'zida shaxs bo'lib shakllanish hissini tuyadi. Rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tarilayotganligini sezgan o'smir, endi o'zini kuchli, mustaqil, irodali, kechagi kunga qadar uning uchun ota-onasi xal qilib yurgan muammolarning yechimini endi o'zi topishga qodir deb hisoblay boshlaydi.

O'smirning kattalarga o'xshash katta bo'lish istagi atrofdagilarning qarshiligiga sabab bo'ladi. Kattalarning munosabatlar tizimida hali yetarlicha tajribaga ega bo'lmagan bola tengqurlari jamoasida o'z o'rnini topadi. Tengqurlari bilan muloqot qilish jarayonida o'smir ijtimoiy xulq-atvor normalari, axloq me'yorlari kabilarni

o'zlashtiradi, o'zaro tenglik, shuningdek bir-biriga nisbatan hurmat munosabatlari o'rnatiladi. Muloqot o'smirning yetakchi faoliyat turiga aylanib boradi. Ammo bu faoliyat turi har doim ham bir tekis, silliq, konfliktlarsiz kechmaydi. Natijada, o'smirlar to'g'ri muloqot qilish va bir-biri bilan do'stlashishni, bir-birini tinglash va eshitishni, o'z kechinmalarini tahlil qilish va ular haqida gapirishni har doim ham uddalashmaydi.

O'smirlardagi agressiv xulq - atvorning shakllanishida oilaviy muhitning o'ri benihoya kattadir. Oiladagi berahmlilik, shavqatsizlikdan aziyat chekish, mehr-muhabbatga nisbatan ehtiyojlarni ota - ona tomonidan qondirilmaligi ya'ni deprivatsiya, jazolash jarayonida o'smirning o'z nomaqbul harakatini tushunib yetmasligi, oilada mo'tadil psixologik iqlim yaratilmaganligi kabi holatlar agressiv xulq - atvorni rivojlanishi va shakllanishini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, ko'rilgan zo'ravonlik xaqidagi filmlar tajovuzkorlikka undash mumkinmi degan savol tug'iladi. Ko'p tajribalarda bunday filmlar tajovuzkorlikka undovchi omillarni ko'rsatib beruvchi vosita sifatida qo'llanilgan. Nafaqat o'smirlar tomonidan, balki, kichik yoshdagi bolalar tomonidan ko'rilayotgan tajovuzga boy syujetli fi'lm va multfilmlar ular xulq- atvorida tajovuzkorlik belgilarini yuzaga kelishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri ekanligidan dalolat bermoqda. Film qahramonlarining zo'ravonligi va ularning xulqiga nisbatan imitatsiya (taqlid) ning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday salbiy xolatni olini olish uchun barcha birdek ma'sul bo'lish juda muximdir. Buning uchun esa ota-ona va farzand o'rtasida sog'lom muloqotni mustahkamlash zarur: Ota-onalar farzandlari bilan doimiy, ochiq va ishonchli muloqot olib borishlari kerak. Farzandning ichki kechinmalari va qiziqishlarini anglash orqali internetda izlanayotgan ma'lumotlar va munosabatlar sabablarini bilish osonlashadi.

Agressiyani ijobiy yo'nalishga burish: O'smirlar uchun sport, san'at, musiqa, drama kabi ijtimoiy va madaniy faoliyatlarga jalb etuvchi to'garaklar faoliyatini kengaytirish tavsiya etiladi. Bunday mashg'ulotlar salbiy energiyani konstruktiv yo'nalishda sarflash imkonini beradi.

O'smirlik davrida agressiv xulq-atvorning shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, uning oldini olish mumkin. Buning uchun oila, maktab, jamiyat va psixologlar birgalikda harakat qilishi lozim. Mehrga boy oila muhiti, to'g'ri tarbiya, sog'lom kommunikatsiya, sport va ijodiy faoliyatga jalb etish, psixologik yordam - bularning barchasi o'smirning ruhiy barqarorligini ta'minlaydi va agressiv xulq-atvorning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akramova N. R. Yoshlarda konfliktli vaziyatlarni bartaraf etishda ota-onaning o'ri // Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'ri hamda rivojlanish omillari. - 2025. - T. 5. - №. 2. - S. 316-321.

2. Atadjanov M., Saliyeva D. A. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi // Qo'qon. - 2020. - T. 3.
3. G'ulomova A. M. O'quvchilar orasida agressiv xulq-atvornig shakllanishi // Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference. - 2024. - T. 2. - №. 20. - S. 421-424.
4. Kushanova M. I. O'smirlar agressiv xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik tavsifi // Hozirgi zamon psixologiya ilmidagi dolzarb muommolar: yechimlar va imkoniyatlari. - 2024. - S. 57-60.
5. Orifboeva, D. D. (2016). O'QITISH FAOLIYATI JARAYONIDA Stressni oldini olish. NovaInfo. Ru, 3(41), 217-220.
6. Орифбоева, Д. Д., & СРЕДНЕЙ, О. ШКОЛЕ//Форум молодых ученых. 2017.№ 6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protssessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 31.03. 2025).
7. Oribboyeva, D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1 (12), 115-117.
8. Ориббоева, Д. Д. (2025). Н Б. Каримова Психологик тадқиқотларда буллинг муммосининг гендер тахлили. Science and Education, 3.
9. Орифбоева Д. Д. ОПТИМИЗАЦИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ // Форум молодых ученых. 2017. №6 (10). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/optimizatsiya-uchebno-poznavatel'nogo-protssessa-v-sredney-shkole> (дата обращения: 21.11.2025).
10. Ориббоева, Д. Д. (2025). ММ Адашалиева ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. Ёш олимлар ахборотномаси»-«Вестник молодых ученых.
11. Oribboyeva, D. D., & Assertiv, S. B. Q. G. A. (2024). xulq shakllanishining o'ziga xosligi. Science and Education, 2.
12. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(9), 256-261.
13. Oribboyeva , D. (2024). BULLING O'SMIRLARDA DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 115-117. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/58095>